

OILAVIY MUNOSABATLARNI O'RGANUVCHI METODIKALARNING ILMIY-NAZARIY TAHLILI

ped.f.d.p. Shaxnoza Xalilova Turg'unovna

O'zMU Jizzax filiali "Oila psixologiyasi" kafedrası o'qituvchisi

Kushnazarova Gavhar Norbuta qizi

O'zMU Jizzax filiali "Oila psixologiyasi" kafedrası magistranti

Annotatsiya:

Ushbu tezisdá oilaviy munosabatlarni o'rganuvchi metodikalar tahlili yoritilgan bo'lib globballashuv jarayonlari oilalarning eng muhim jihatlarini o'rganishni taqazo etmoqda. Bu metodikalar oilaviy munosabatlarni o'rganib tahlil qilishga ularning rivojlanish qonuniyatlari va ularda yuzaga kelayotgan muammoli vaziyatlar va ularni bartaraf etish uchun qo'llaniladi.

Kalit so'zlar: oila, nikoh, oilaviy qadriyatlar, oilaviy munosabatlar, metodika.

Hozirgi kunda jahon miqyosida oila va nikoh masalalari va qadriyatlariga nisbatan oqilona munosabatni to'g'ri shakllantirish eng muhim vazifalardan biri sanalib kelmoqda. Shunday ekan, oila va nikoh masalalarini o'rganish, ularning har tomonloma o'rganilmagan ijtimoiy-psixologik jihatlarini ilmiy jihatdan tadqiq etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Oila va oilaviy munosabatlarida yuzaga kelayotgan muammolar ilk jamiyat paydo bo'lgandan buyon eng dolzarb muammolardan biri bo'lib kelgan. Jamiyat rivojlanib, taraqqiy etib borar ekan, unda yashovchi insonlarning ongi ham o'sib boradi. Insoniyat tomonidan erishalayotgan yutuqlar oilaviy muhitda, ota-ona va farzandlar munosabatlari tizimida uzviylikda a'nana va ma'naviy meros sifatida davom etib avloddan-avlodga o'tib shakllanib boradi. Demak, har bir xalqning, jamiyat va millatning, rivoji, istiqboli o'sha jamiyatni tashkil qilgan insonlar jamoasiga ularning munosabatlariga bog'liq. Shuning uchun ham har bir oilaning ilk shakllanish davridayoq ichki muhitini ham jismonan ham ma'naviy jihatdan sog'lom, mustahkam qilishga e'tibor qaratish lozim. Oilaviy munosabatlarni o'rganishda avvalo ularni to'g'ri diagnostika qilish lozim, chunki to'g'ri diagnostika qo'yish orqali butun bir yuzaga kelgan va yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolarini tezda bartaraf etgan bo'lamiz. Ko'pgina olimlar tomonidan aynan oila va oilaviy munosabatlarni o'rganuvchi metodikalarining ishlab chiqilganligi ko'pgina tadqiqot ishlarining samarali yakunlanishiga xizmat qilib kelmoqda. Bu metod va metodikalar oilaviy munosabatlarda ichki muhitini o'rganib ulardagi ijtimoiy-psixologik muammolarni tahlil qilishga, muammoli vaziyatlarga olib keluvchi yashirin psixologik sabab va qonuniyatlarni ham ochib berishga xizmat qiladi.[1]

Bugungi kunda psixologiyada oila va nikoh munosabatlarini aniqlashga qaratilgan bir qancha metodiklar mavjud. Ulardan V.V.Stolin, T.L.Romonova, va G.P.Butenkolarning “Nikohdan qonniqqanlikni aniqlash” metodikasi A.N.Volkovaning “Rolli kutilmalar va nikohga da’vogarlik” metodikasi, “Oiladagi ro‘llarning taqsimlanishi (RRS)”, va Liri testi.

Jumladan ko‘pgina metodiklar oiladagi er-xotin munosabatlarini o‘rganishga qaratilgan bo‘lib, unda o‘zaro kutilma va intilishlar ko‘rsatiladi. Bunday metodikalardan biri A.N.Volkovaning “Ro‘lli kutilmalar va intilishlar” metodikasidir. Mazkur metodika rus olimi A.N.Volkova tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lib uning milliy modifikatsiyasini yaratishga ehtiyoj sezilgan. Metodikaning milliy modifikatsiyasini (J.Jabborov) bir qancha tadbirlar va solishtirishlar orqali amalga oshirgan. [2]

Metodikaning tatbiq qilinishi er- xotinlarning oilaviy qadriyatlar borasidagi qarashlari, munosabati, va uni amalga oshirishdagi kutilma va intilishlarini aniqlanilib solishtiriladi. Metodika ikki variantdan erkak va ayollar uchun alohida bo‘lib har birida 36 ta ta’kiddan iborat savolnoma mavjud shkalalar soni 7 tadan tashkil topgan.

Metodikadan olingan natijalar uch bosqichda qayta ishlanadi:

1. Er-xotinlarning ro‘llarga mosligi, nikoxga da’vogarlik va oilaviy qadriyatlar shkalalari buyicha individual ko‘rsatkichlari taxlil qilinadi. Bunda er-xotinlarda oilaviy qadriyatlar ierarxiyasi borasidagi tasavvurlari tavsiflanadi. Ularning oilaviy munosabatlardagi ro‘lli xatti-xarakatlari, oiladagi funksiyalarini bajarishdagi faolliklari izohlanadi.
2. Er va xotinning oilaviy qadriyatlar borasidagi va rolli ustanovkalar yuzasidan tasavvurlari siyosiy tahlil qilinadi.
3. Bu bosqichda oilaviy shaxslararo munosabat va o‘zaro ta’sirlashuvda er-xotinlarning ro‘llari muvofiqligi darajasi 3-7 oilaviy qadriyatlar shkalalari yordamida aniqlanadi.

Shkalalari quyidagicha bo‘lib:

1. **Jinsiy munosabatlar.** Metodikaning birinchi shkalasi jinsiy munosabatlarni aniqlashga yo‘naltirilgan bo‘lib, er-xotinlarning jinsiy munosabatlardagi muvofiqligini, oilaning tinch-totuvligida ularning ahamiyatini yoritish imkonini beradi.
2. **Er-xotinlarning shaxs sifatida muvofiqligi.** nikohdagi sheriklarning maslamlari, qiziqishlari, manfaatlari, qadriyatlar yo‘nalishi, vaqtini mazmunli o‘tkazishlari bilan bog‘lik bir qator ustanovkalarni mujassamlashtirgan.
3. **Maishiy-xo‘jalik yuritish.** “Bosh kop tik turmayd”, “avval iqtisod, keyin siyosat” shakldagi naqllarni tez-tez takrorlaymiz. Oilaning maishiy-xo‘jalik faoliyatini ko‘ngildagidek o‘tishi er-xotinlarning munosabatlarini, shuningdek, uning barqarorligini ta’minlovchi markaziy omillar sirasiga kiradi. Ammo oiladagi maishiy-xojalik faoliyatni boshqarishda kimning yetakchilik qilishi o‘rinli degan savol ko‘ndalang turadi. Metodikaning xususiyatiga kora, shkala boyicha

yuqori natijalar er-xotinlarning bir-biriga nisbatan maishiy-xo'jalik yuritishga nisbatan talab yuqori ekanligini bildiradi.

4. Ota-ona tarbiyachilik funksiyasi. Bu shkala er-xotinlarning ota-onalik majburiyatlariga munosabati, farzandlar shakllanishidagi shaxsiy pozitsiyalari, ota-onalik funksiyalariga taalluqli tasavvurlarini ifodalaydi.

Er-xotinlarning ota-onalik xamda tarbiyachilik funksiyalari tog'risidagi tasavvurlari, ularning shaxslilik pozitsiyalari, ijtimoiy talablarga mas'uliyat, jamiyat va oila munosabatlaridagi o'rinlarini belgilaydi.

5. Ijtimoiy faollik. Mazkur shkala er-xotinlarning tashqi ijtimoiy faolligini, ya'ni kasbiy va jamiyat xayotidagi oilaviy munosabatlar barqarorligini belgilovchi ustanovkalarni aks ettiradi. Ijtimoiy faollik shkalasi er-xotinlarning maishiy-xo'jalik va tarbiyachilik funksiyalarini sifat ko'rsatkichi xisoblanadi. Albatta, oilaviy munosabatlarning barqarorligi er-xotinning savodxonlik darajasi, kasbiy faoliyati mavqelariga bog'lik.

6. Emotsional-psixoterapevtik. Bu shkala er-xotinlarning oiladagi emotsional-psixoterapevtik funksiyalari ahamiyatini belgilovchi xisoblanadi. Shkala-mazmuniga ko'ra, ikki xil jihatli ma'noga ega. Birinchidan, er-xotinlarning oiladagi emotsional liderlikni, psixologik muxitni, axloqiy va xissiy qo'llab-quvvatlash xamda "psixoterapevtik muxitni" shakllantirish masalasini aks ettirsa, ikkinchidan, er-xotinlarning oila "psixoterapevti" ro'lini bajarishga intilishini belgilaydi

7. Tashqi jozibadorlik. Mazkur shkala er-xotinlarning tashqi qiyofalari va ularning kiyinishlarini zamon talablari darajasiga mosligi ahamiyatini belgilovchi ustanovka xisoblanadi. Shkaladan ko'rinib turgandek er-xotinlarning eng yoqimtoy juftlik bo'lishi tashqi jozibadorlikka egalik, bejirim va zamonaviy kiyinishga intilishi masalasi oilaviy munosabatlarning muhim shartidir.[3]

"Nikohdan qonniqqanlikni aniqlash" metodikasi V.V.Stolin, T.L.Romonova, va G.P.Butenkolar tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib metodika orqali - er-xotinning har birining nikohdan qoniqish va qoniqmaslik darajasi aniqlanadi. Metodikaning asosida nikohdan qoniqqanlikning hissiy namoyon bo'lishi avvalo hissiyot, birgalikdagi emotsiyalar, yuqori tushunish, muvaffaqiyatli nikohning u yoki bu parametrlari xamda turli vaziyatlarga nisbatan turli fikrlar, baholar to'g'risidagi fikrlar, tasavvurlar yotadi. Taklif qilinayotgan metodika qayerda nikoxdan qoniqish tashxisini o'rganish kerak bolsa, qo'llanish mumkin: oila psixologiyasi sohasi ilmiy tadqiqotlar o'tkazishda, psixoprofilaktik tekshirishlarda, zaks yoki sudda ajrashiyotganlar bilan ishlashda xamda oilaviy maslaxat va psixoterapiyada. Savolnoma oilaviy bosqichning barcha etaplarida er-xotin inqirozli xolatini o'rganishda muvaffaqiyatli qo'llanishi mumkin.

Metodika 24 ta tasdiqdandan iborat bo'lib 3ta variantdan iborat respondent o'ziga tegishli bo'lgan javob variantini belgilashi lozim. Ushbu metodikani kalitlari ham berilgan bo'lib

javoblar kalit variantlari orqali tekshiriladi. Yig'ilgan ballar 0-48 ballgacha Yuqori ball nikoxdan qoniqish mavjudligini ko'rsatadi.

Test ballarining yig'indisi chiziqda 7 kategoriyaga bo'linganda o'zaro munosabatlarni baholashning quyidagi shkalasi hosil bo'ladi:

0-16 ballgacha - umuman mos kelmaydigan nikoh,

17-22 ballgacha - mos kelmaydigan,

23-26 ballgacha - mos kelmasligi ko'proq,

29-32 ballgacha - nisbatan mos kelgan nikoh,

33-38 ballgacha - bir-biriga mos,

39-48 ballgacha - nikohdagilar bir-biriga har tomonlama mos keladi. [5]

Foydaniqlangan adabiyotlar ro'yxati

1. M. Fayziyev, A. Jabbarov. Oilaviy munosabatlar psixologiyasi. T-2015

2. Исаева М. ОИЛАВИЙ МУНОСАБАТЛАР ПСИХОДИАГНОСТИКАСИ // Интернаука. – 2020. – №. 23-3. – С. 63-66

3. Qo'shnazarova G.N. <<Yosh oilalarning ijtimoiy-psixologik muammolarini hal qilish yechimlari>>. Zamonaviy innovatsion tadqiqotlarning dolzarb muammolariva rivojlanish tendensiyalari: yechimlar va istiqbollar>> mavzusidagi Respublika miqyosidagi ilmiy-texnik anjumani materillar to'plami (2022-yil 13-14 may).

4. Fayzullayeva G.J. "Oilada muloqotchanlikka kirishishning psixologik jihatlar". Zamonaviy innovatsion tadqiqotlarning dolzarb muammolariva rivojlanish tendensiyalari: yechimlar va istiqbollar mavzusidagi Respublika miqyosidagi ilmiy-texnik anjumani materillar to'plami (2022-yil 13-14 may).

5. Кошназаровай, Г. (2022). Yosh oilalarning ijtimoiy-psixologik muammolarini hal qilish yechimlari. Современные инновационные исследования актуальные проблемы и развитие тенденции: решения и перспективы, 1(1), 520–522.

6. Норбекова, Б. (2020). МИЛЛИЙ ХАРАКТЕР ШАКЛЛАНИШИНИНГ ИЖТИМОЙ-ПСИХОЛОГИК ХУСУСИЯТЛАРИ. Научно-просветительский журнал "Наставник".